

**OGAHYNING “TA’VIZ UL- OSHIQIN” DEVONIDAGI “HARBIY
MAVZUGA OID” LSG NING TAHLILI**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
instituti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
70230101 Lingvistika (fors tili) yo'nalishi II bosqich magistranti*

Abduvoxidova Sharifa Faxriddinovna

sharifa2003a@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning adabiy va tarixiy faoliyati, “Ta’viz ul-oshiqin” devonining janrlar tarkibi hamda undagi she’riy asarlarning miqdoriy va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan. Ogahiy ijodida chig‘atoy turkiy va forsiy tillarning tutgan o‘rni ilmiy asosda ko‘rsatilib, forsiy she’rlarning alohida bo‘lim sifatida kiritilishi asoslab beriladi. Maqolaning asosiy qismida “Ta’viz ul-oshiqin” devonida uchraydigan harbiy mavzuga oid forsiy o‘zlashmalar leksik-semantik guruh doirasida tahlil qilinib, ularning semantik, morfologik va etimologik xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari forsiy o‘zlashmalar o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojida muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, “Ta’viz ul-oshiqin”, o‘zbek mumtoz adabiyoti, chig‘atoy turkiy tili, forsiy o‘zlashmalar, leksik-semantik guruh, harbiy leksika.

Annotation: This article analyzes the life and creative heritage of Muhammad Rizo Ogahi, a prominent representative of nineteenth-century Uzbek classical literature. The study examines the poet’s literary and historical activities, the genre composition of the divan “*Ta’viz ul-oshikin*”, as well as the quantitative and thematic characteristics of the poetic works included in it. The role of the Chagatai Turkic and Persian languages in Ogahi’s творчество is scientifically substantiated, and the inclusion of Persian poems as a separate section is justified.

In the main part of the article, Persian military-related loanwords found in the divan “*Ta’viz ul-oshikin*” are analyzed within the framework of a lexical-semantic group, and their semantic, morphological, and etymological features are identified. The research findings confirm that Persian loanwords played an important role in the formation and development of the Uzbek literary language.

Keywords: Muhammad Rizo Ogahi, “*Ta’viz ul-oshikin*”, Uzbek classical literature, Chagatai Turkic language, Persian loanwords, lexical-semantic group, military vocabulary.

Аннотация: В статье анализируются жизнь и творческое наследие выдающегося представителя узбекской классической литературы XIX века Мухаммада Ризо Огахи. В исследовании рассматриваются литературная и историческая деятельность поэта, жанровый состав дивана “Та’виз ул-ошикин”, а также количественные и содержательные особенности включённых в него поэтических произведений. Научно обосновывается роль чагатайского тюркского и персидского языков в творчестве Огахи, а также выделение персидских стихотворений в качестве самостоятельного раздела. В основной части статьи персидские заимствования военной тематики, зафиксированные в диване “Та’виз ул-ошикин”, анализируются в рамках лексико-семантической группы, выявляются их семантические, морфологические и этимологические характеристики. Результаты исследования подтверждают, что персидские заимствования сыграли важную роль в формировании и развитии узбекского литературного языка.

Ключевые слова: Мухаммад Ризо Огахи, “Та’виз ул-ошикин”, узбекская классическая литература, чагатайский тюркский язык, персидские заимствования, лексико-семантическая группа, военная лексика.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda yashab ijod qilgan mashhur shoir, tarixchi va adib bo'lib, Xiva xonligi hududida faoliyat yuritgan. U Markaziy Osiyo adabiyoti va tarix ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Asosan fors hamda chig'atoy turkiy tillarida asarlar yaratgan Ogahiy, ayniqsa, tarixiy bitiklari bilan keng tanilgan. Uning tarixiy asarlarida Xiva xonligining

siyosiy tuzumi, ijtimoiy hayoti va madaniy muhitiga doir muhim va ishonchli ma'lumotlar aks etgan. Ogahiy o'z ijodida Alisher Navoiy singari buyuk mutafakkirlar boshlab bergan adabiy an'analarni davom ettirib, chig'atoy turkiy tilida yuksak badiiy saviyadagi she'rlar yozgan. Uning she'riy merosida muhabbat, hayot falsafasi va tabiat manzaralari nafis tasvirlar orqali ifodalangan bo'lib, ijodkorning yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi¹.

Ogahiy o'zining adabiy merosida turli janrlarda ijod qilgan va bu jihatdan u o'zbek klassik adabiyotining eng sermahsul shoirlaridan biri hisoblanadi. Uning "Ta'viz ul-oshiqin" nomli devoni tarkibiga 18 xil adabiy janrda yozilgan she'riy asarlar kiritilgan bo'lib, bu devon nafaqat o'z hajmi, balki janrlar rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Devonning asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi — jami 445 ta g'azal mavjud bo'lib, ularning 23 tasi fors tilida yozilgan. Bu g'azallar umumiy hisobda 4056 baytni tashkil etadi va Ogahiy ijodida g'azal janri muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Devon tarkibida boshqa she'riy janrlar quyidagicha ifodalanadi: Mustazodlar — 3 ta she'r, jami 24 bayt. Bu janrda yozilgan asarlar Ogahiy poetik imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi.

Muxammaslar — 84 ta bo'lib, ularning 10 tasi muallifning o'z g'azallari asosida yozilgan. Qolgan muxammaslar esa Navoiy (31 ta), Fuzuliy (8 ta), Munis (7 ta), Rojiiy (8 ta), Dilovar (2 ta), Feruz (9 ta) hamda boshqa shoirlar g'azallariga taxmis tarzida bitilgan. Fors tilida yozilgan 5 ta muxammas ham mavjud bo'lib, ulardan 4 tasi Bedil va Amir g'azallariga bog'langan. Umumiy hisobda muxammaslar 639 band, 3195 misrani tashkil qiladi.

Musaddaslar — 5 ta bo'lib, 36 banddan iborat.

Murabba'lar — 2 ta, jami 24 band.

Musammanlar — 3 ta, yana bir forsiy musamman ham mavjud, jami 27 band.

Tarje'band — 1 ta, 4 she'rni o'z ichiga olgan, jami 24 band.

Qit'alar — 7 ta, 21 baytdan iborat.

Ruboiylar — 80 ta bo'lib, qisqa, ammo chuqur ma'noga ega she'rlar sanaladi.

¹ [en.wikipedia.org](https://scientific-jl.com/)
<https://scientific-jl.com/>

Tuyuqlar — 10 ta bo'lib, mumtoz adabiyotda keng tarqalgan qisqa janrdir.

Muammolar — 80 ta, unda ko'pincha mavhum obrazlar orqali ma'no beriladi.

Chistonlar — 4 ta, asosan topqirlik va zakovatni sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Masnaviylar — 4 ta, jami 450 baytdan iborat, bu janr ko'pincha epik syujetlarni ifodalaydi.

Munajat (forsiy) — 1 ta, 27 baytli, ilohiy ruhdagi she'r.

Ta'rixiiy she'rlar (ta'rixlar) — 20 ta, jami 562 misra, muhim voqealarni sanalar bilan uyg'unlashtirib yozilgan.

Musovittarafayn — 1 ta.

Bahri taviil — 1 ta.

Qasidalar — 19 ta, chuqur falsafiy va ma'rifiy mazmunga ega².

Umuman olganda, Ogahiy ijodi janrlar xilma-xilligi va mavzular boyligi bilan ajralib turadi. Uning she'riy merosida an'anaviy muhabbat mavzusi — ma'shuqaning husnu jamolini ulug'lash, oshiqning dardli kechinmalarini ifodalash asosiy o'rin tutgan bo'lsa-da, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy, siyosiy va hayotiy-falsafiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu jihat Ogahiy she'riyatini ham badiiy, ham ma'naviy-ma'rifiy jihatdan bebaho merosga aylantirgan.

Ogahiy o'zining "Ta'vizul-oshiqin" nomli devoniga faqat o'zbek tilidagi she'rlarigina emas, balki fors tilida yozilgan she'riy namunalarini ham alohida bo'lim sifatida kiritgan. Mazkur bo'lim "Ash'ori forsiy" deb nomlanib, unda shoirning fors tilida bitgan g'azal, muxammas, musamman, munajat, masnaviy janrlaridagi asarlari jamlangan. Ushbu forsiy she'rlar umumiy hisobda 1090 misrani tashkil etadi.

Quyida "Harbiy mavzu"ga oid forsiy o'zlashmalarning LSGini Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devonida keltirilgan matn asosida tahlilini amalga oshiramiz:

² Ганихўжаев Ф. "Таъвиз-ул-ошиқин" девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фанлари докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.

Harbiy mavzuga oid LSG

1.	Sepohigar	سپاهی گر	lashkar/qo'shin
2.	Sipohdor	سپاه دار	armiya qo'mondoni
3.	Lashkar	لشکر	askar, qo'shin
4.	Zanjir	زنجیر	zanjir
5.	Giriftor	گرفتار	asirga tushgan
6.	Duchor	دچار	to'satdan to'qnashuv
7.	Beranj	بی رنج	dardsiz, ozorsiz
8.	Kamon	کمان	yoy (qurol)
9.	Tabar	تبر	bolta, qurol
10.	Xirom	خرام	ohista yurish, sayr

“...sipohigarlik yarog'in tuzmak tashvishig'a duchor...³” “sipohigar” so'zi “sipoh” (askar, qo'shin) va “-gar” (ishlovchi, bajaruvi shaxs) komponentlaridan tashkil topgan bo'lib, “sipoh bilan shug'ullanuvchi, harbiy ish bilan mashg'ul kishi”, ya'ni “harbiy, askar, sarkarda” ma'nosini bildiradi.

Mazkur jumlada “sipohigarlik yarog'in tuzmak tashvishig'a duchor” iborasida so'z “harbiy ishlar, harbiy tayyorgarlik, urush amaliyoti bilan bog'liq faoliyat” ma'nosida ishlatilgan.

Asosiy ma'no (denotativ): harbiy ish bilan shug'ullanuvchi kishi, jangchi, sarkarda;

Ko'chma (badiiy) ma'no: harbiylik ruhi, jangovar faoliyat, qudrat timsoli.

Shu jumlada “sipohigarlik” orqali “harbiy faoliyatga oid tashvish” ifodalanib, shaxsning davlat va mudofaa ishlari bilan bog'liq mas'uliyatini ko'rsatmoqda.

“Sipohigar” so'zi fors-tojik tilidan kirgan murakkab yasama so'z bo'lib, quyidagi unsurlardan tashkil topgan: sipoh (سپاه) — forsha so'z, “qo'shin, askar, armiya, lashkar” ma'nosida; qadimgi fors tilidagi *spāda*- (“lashkar, qo'shin”)

³ Rafiddinov S. Turkiy adabiyot durdonalari, 9-jild – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. – 16.

<https://scientific-jl.com/>

ildizidan kelib chiqqan; o'zbek tilida ham “sipoh”, “sipohi” shakllarida “askar, jangchi” ma'nosida ishlatiladi. -gar (گَر) — forscha so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, “bajaruvchi shaxs, ish qiluvchi” ma'nosini bildiradi. Masalan: hunargar (hunarmand), zargar (tillachi).

sipoh + gar = sipohigar = “sipoh bilan shug'ullanuvchi, harbiy ishlarga oid kishi”, ya'ni “harbiy, sarkarda, askar”.

Shunday qilib, etimologik jihatdan “sipohigar” — forscha “sipoh” (askar) + yasovchi qo'shimcha “-gar” (ish qiluvchi) birikmasidan yasalgan forsiy yasama so'zdir.

“...sipohdorlig' mansabining shug'li zanjiriga giriftor bo'ldim.”⁴ “sipohdorlig'” so'zi “sipoh” (askar, lashkar) va “dor” (egasi, sohibi) so'zlaridan yasalgan murakkab ot bo'lib, “sipohdor” — “askar sohibi”, “lashkar boshlig'i”, “harbiy mansabdor shaxs” ma'nosini bildiradi. Undan “-lig'” qo'shimchasi yordamida abstrakt ism hosil bo'lib, “sipohdorlik” — “harbiylik, harbiy soha bilan shug'ullanish holati yoki lavozimi” ma'nosini anglatadi.

“Harbiy mansabdorlik”, “sipohdorlik martabasi yoki kasbi”, “harbiy xizmat bilan bog'liq lavozim” ma'nolarida ishlatiladi. “Men sipohdorlik mansabining zanjiriga giriftor bo'ldim” — ya'ni “men harbiy xizmatning, harbiy mansabning og'ir mas'uliyati yoki bog'lovchi majburiyatlariga duchor bo'ldim” degan ma'noni anglatadi.

Sipoh (سپاه) — forscha so'z bo'lib, “lashkar, qo'shin, harbiy kuch” degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'z qadimiy fors tilida ham shu ma'noda ishlatilgan (avesto tilidagi spāhā — “askarlik”).

Dor (دَر) — forscha qo'shimcha bo'lib, “egasi, sohibi” ma'nosini beradi. Masalan: zargardor – oltin sohibi, sipohdor – lashkar sohibi, lashkarboshi.

-lig' (-lik) — turkiy qo'shimcha bo'lib, sifat yoki holat bildiruvchi abstrakt ot hosil qiladi. Shunday qilib, sipoh + dor + lig' = “sipohdorlig'” (“harbiylik”, “harbiy mansab egaligi”) shaklida yuzaga kelgan.

⁴ Rafiddinov S. Turkiy adabiyot durdonalari, 9-jild – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. – 16.

<https://scientific-jl.com/>

Forsiy o'zlashmalar o'zbek tilining lug'aviy boyish jarayonida muhim rol o'ynagan bo'lib, ularning katta qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol ishlatilmoqda. Ular tilimizning badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan, poetik uslubda obrazlilik va emotsional bo'yoq yaratishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, o'zlashmalar morfologik jihatdan ham tilda faol ishlovchi birliklar sifatida namoyon bo'ldi. Ularning bir qismi turkiy so'z yasovchi affikslar yordamida yangi yasama birliklar hosil qilgan, bu esa forsiy o'zlashmalar va o'zbek tilining ichki imkoniyatlari o'rtasidagi integratsiyani ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, forsiy o'zlashmalar o'zbek tili leksik tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular semantik jihatdan chuqur qatlamni tashkil etadi. Ularning o'rganilishi til taraqqiyoti, xalq madaniy aloqalari va tarixiy til qatlamlarining shakllanish jarayonini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 en.wikipedia.org
- 2 Ғанихўжаев Ф. “Таъвиз-ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фанлари докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
- 3 Rafiddinov S. Turkiy adabiyot durdonalari, 9-jild – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 718 b.